

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi 167 964,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 foizga teng bo'ldi.

YAHM deflyator indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 9,1 % ga yetdi.



Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**


	<i>Mrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	
I. YAHM, jami	130 439,5	167 964,6	107,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	129 221,2	166 736,2	107,7
mahsulotlarga sof soliqlar	1 218,3	1 228,4	108,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	129 221,2	166 736,2	107,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12 621,7	14 300,7	104,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	100 445,1	133 291,1	108,2
Sanoat	94 653,8	126 697,8	108,3
Qurilish	5 791,3	6 593,3	106,5
Xizmatlar	16 154,4	19 144,4	107,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 009,8	5 999,2	109,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 284,8	2 922,6	115,5
boshqa xizmat tarmoqlari	8 859,8	10 222,6	104,4

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 152 238,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga yuqoridir.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning hajmi va o‘shish sur‘atlari diagrammasi





**Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi**
(jamiga nisbatan % da)

	<i>Mrd. so'm</i>	
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	99,1	99,3
mahsulotlarga sof soliqlar	0,9	0,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9,8	8,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	77,7	80,0
Sanoat	73,2	76,0
Qurilish	4,5	4,0
Xizmatlar	12,5	11,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,9	3,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,8	1,8
boshqa xizmat tarmoqlari	6,8	6,0

2025- yil yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 8,6 % ni, sanoat tarmog‘i 76,0 % ni, qurilish 4,0 % ni va xizmatlar sohasi 11,4 % ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning oʻsishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy oʻsish surʼatlari bilan bogʻliqdir. Oʻsish surʼatlari qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi – 8,6 %), sanoatda – 108,3 % (76,0 %), qurilishda – 106,5 % (4,0 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % ni (11,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida oʻsish surʼatlari savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarda 109,8 % (3,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,5 % (1,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,4 % dan (6,0 %) iborat boʻldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mutlaq oʻsish surʼatlari
(oʻtgan yilga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 35 170,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan – 30 417,0 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 21,1 % ni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan – 23,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

Yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

